

**BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI  
ASOSIDA VATANGA E'TIQODNI TARBIYALASH OMILLARI**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrası  
dotc. Fayziyev M.A  
Pedagogika kafedrası 2-kurs magistranti  
Sheraliyeva Mohichexra Bolbekovna*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda milliy istiqlol g'oyasi asosida vatanga e'tiqodni tarbiyalash omillari haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Kalit so'zlar:** milliy g'oya, Vatannravnaqi, mashg'ulot, mehr, g'urur, iftixor, e'tiqod

Yosh avlodni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalash jamiyatda muhim ijtimoiy omil sifatida qaraladi. Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo, ta'lim - tarbiyadan boshlanadi.

Hozirgi vaqtda barkamol avlodni sog'lom turmush tarziga tayyorlashda ta'lim - tarbiya sohasidan boshlab matbuot, televideniye, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari yoshlarni komil inson qilib tarbiyalaydigan har qanday ijobiy jarayonni zamon talablari asosida yangi bosqichga ko'tarishi zarur. Chunki zamon talab va ehtiyojlari, erki va ozodligi hamda ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy mexanizmi markazida yosh avlod yotadi.

Milliy g'oyamizning asosiy mazmunini ifoda etadigan yo'nalishlar haqida gapirganda, hech shubhasiz, biz Vatan ravnaqi va taraqqiyotini o'zimizga tasavvur qilamiz.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida milliy istiqlol g'oyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni tarbiyalashda darsdan tashqari tadbirlarning o'zni katta. Shuning uchun o'qituvchilar darsdan tashqari mashg'ulotlar mavzulari buyicha kecha va uyinlarning ssenariyalari ishlab chiqishlari va o'quvchilar bilan o'tkazishlari lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlarini tashkil qilishga yu-naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati, o'quvchi kundalik hayotining namoyon bo'lishidir. O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishti-rok etadi, turli mazmundagi suxbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kecha-larni tashkil kilishda ishtirok etadi, rollarni bajaradi, tinglaydi, qola-versa bular, orkali ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning milliy merosimizga nisbatan qiziqishlarini o'stirish maqsadida tashkil qilinadi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga turli

tarbiyaviy vazifalarni qo'yadi. Ularning har biri o'zga xos belgilarni, bir-biridan farq qiluvchi shakllarni, vositalarni, ijodiy, mehnatni talab qiladi.

Bugungi kunda mamlakamizda olib borilayotgan barcha ishlarning, islohotlarning negizida yosh avlodni haqiqiy Vatanga e'tiqodli, ma'naviy-axloqiy, insoniy fazilatlarini yuksak darajada shakllangan insonlar qilib tarbiyalash yotadi. Mamlakatimiz rivojlanish jarayonini boshidan kechirayotgan bir paytda, yoshlarda mustahkam e'tiqodni shakllantirish davr talabidir. Yoshlarimizda Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilish, Vatan manfaatini o'z manfaatlaridan ustun qo'yish, Vatanni qo'riqlash, yurt tabiati va boyliklarini asrash eng asosiysi Vatanga nisbatan chin e'tiqodni tarbiyalash o'qituvchi-pedagoglarning hayotiy vazifasidir. Toki Vatan muqaddas tushuncha ekan, shu Vatan tuprog'i va millat sha'ni uchun jon bergan bobolarning, aka-ukalarning xotirasi hurmati yoshlarni xaqiqiy Vatanga e'tiqodli insonlar qilib yetishtirishning ayni vaqtidir.

Milliy istiqlol g'oyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni tarbiyalash jarayonini yanada takomillashtirish, o'quvchilarni milliy qadriyatlar bilan chuqurroq tanishtirish, ularning darsda olgan bilimlarini amalda isbotlash maqsadida turli ertaliklarni, kechalarni, bellashuvlarni o'tkazishni maqsadga muvofiq deb bildik. Buning uchun, avvalo milliy qadriyatlarimizni, bayramu-sayillarimiz va urfodatlarimiz xaqida bolalarda tushuncha hosil qilishimiz, Vatan haqidagi she'rlarni yod olishni, o'quvchilarning o'zlari chizgan Vatan manzarasi tasvirlangan suratlar namoyishini tashkil qilish, milliy urf-odatlarimiz aks etgan ko'rinishlarni tayyorlash bilan ertaliklarga tayyorgarlik ko'riladi.

Milliy bayramlarimizni boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan birgalikda nishonlash, avvalo o'quvchilarda ona-Vatanga, tabiat va jonzotlarga nisbatan mexr-muxabbat, gurur va iftixor xissini tarbiyalaydi. Bu kabi ishlarning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligi oshadi, dunyoqarashi kengayadi, asosiysi darsda olgan bilimlarini mustahkamlaydi, xotirasida uzoq vaqt saqlab qoladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'quvchilarni birdamlikka, jamoa bo'lib ishlashga o'rgatadi.

Shu boisdan boshlang'ich sinf o'quvchilarda sinfdan tashqari mag'ulotlarda milliy qadriyatlarimiz namunalarini o'rganish yuzasidan ertaliklar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Shu nuqtai nazardan biz o'quvchilarni inson uchun dunyoda Vatandan aziz va mu'tabar, muqaddas, qutlug' narsa yo'q ekanligi ruhida tarbiyalashimiz lozim. Vatan - bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Vatanparvarlik esa milliy manfaatlarini, millat takdirini va istiqlolini chuqur o'ylash va anglash mas'uliyati bilan bog'lik ma'naviyatdir. «Bugun Vatanning har bir farzandi, - deb ta'kidlaydi I. Karimov - o'zining ota yurtining ajralmas bo'lagi deb his etayapti va bundan faxrlanayapti.

Istiqlol bergan eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak, aslo yanglishmagan bo'lamiz».

Bu borada bizning vazifamiz, Vatanimiz tarixini yoshlarga davr siyosatiga moslashtirilgan, bir qolipga solingan holda emas, balki obyektiv asosda, otabobolarimizning yurtimiz mustaqilligi uchun olib borgan kurashlari, ayni shu yo'lda ularning jon berib jon olganlari misolida yetkazishimiz lozim.

- to'rtinchidan, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish ruhida tarbiyalash, boshlang'ich sinf o'quvchilarni milliy an'analarimiz, milliy odob-axloqimiz qoidalari, ona tilimizni chuqur o'rganishga da'vat etishimiz lozim.

Mustaqillik davri yaxshi milliy an'analarga, urf-odatlarining mezoni doirasida turib ish tutishni talab etadi. Biz ayniqsa o'quvchilarni ajoyib milliy urf-odatlarimiz, chunonchi o'zidan kattani, kariyalarni, ota-onani hurmat qilish, ularning talablarini mumkin qadar bajarish, chanqagan yo'lovchiga suv berish, oyoq ostida yotgan non bo'lagi va ushog'ini olish, daraxt ekish va boshqa juda ko'p go'zal, oliyjanob urf-odatlar ruhida tarbiyalashimiz, ular ongiga singdirishimiz lozim.

Kelajak avlodlar o'z taraqqiyotida o'tmish avlodlarning tajribasidan, yo'l-yo'riqlaridan, ulardan meros qolgan moddiy va ma'naviy merosdan o'z faoliyatlarida foydalanadilar, o'zlariga kerakli xulosalarni chiqarib oladilar.

,

,

,

,

'rtasidagi vorislik milliy mafkurada o'z aksini topadi.

,

,

,

Mamlakatimizni rivojlantirish, dunyo miqyosiga olib chiqish bugungi yosh avlodning burchi va vazifasidir. Bu borada ularda yuqorida aytganimizdek chin e'tiqodni shakllantirish, ularni qo'llab-quvvatlash xalqimiz va hukumatimizning vazifasidir. Buyuk alloma, mutafakkirlarimiz ning ma'naviy merosi, xalqimizning boy og'zaki ijodi, yozma manbalari, go'zal bayramlari hamda urf-odatlari, xalq xunarmandchiligi, o'lkashunoslik manbalari yosh avlodni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash borasidagi benihoya qimmatli boylikdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Donishmandlar odob-axloq to'g'risida T., O'qituvchi, 1986, 134 b.
2. Javliyev T. An'analar xayot sabogi. T., O'qituvchi, 1992, 87 b.
3. Jabborov Iso. Turmush tarzi, urf-odat va odob. T., O'qituvchi. 1980, 112 b.
4. Ziyoyev X. Istiqlol ma'naviyat negizi. T.: «Ma'naviyat». 1999, 189 b.

5. A.Ibroximov, X.Sultonov, N.Jurayev. Vatan tuygusi. T.: «O'zbe-kiston», 1996, 443 b.
6. Maxkamov U. Axloq-odob saboqlari. T.: Fan .1994, 133 b.
7. Maxmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. T.: «Sharq», 2001,160 b.
8. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashxur siymolar, allomalar, adiblar) T.A.Qodiriy nomidagi xalk merosi nashriyoti.1999,395 b.
9. Milliy istiqlol goyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar T.,Uzbekiston 2000 , 80 b
10. Milliy istiqlol g'oyasi : asosiy tushuncha va tamoyillar (Ma'ruza matnlari) - T., 2001
11. Milliy istiqlol g'oyasi va ijtimoiy-gumanitar fanlar. Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 2001, 174 b.
12. Milliy istiqlol g'oyasi.Darslik.T.,2005